

TIZIMLI YONDASHUV ASOSIDA TASHKILOTNING BOSHQARUV STRATEGIYASINI TAKOMILLASHTIRISH.

Gulyora Shanazarova

Ilmiy rahbar: Dotsent

[*gulyorashanazarova@gmail.com*](mailto:gulyorashanazarova@gmail.com)

Ergashev O'tkir

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 1- bosqich magistranti

[*uergasev706@gmail.com*](mailto:uergasev706@gmail.com)

Annotatsiya: Ushbu maqolada korxonalarining boshqaruv strategiyasini takomillashtirish, unga ta'sir qiluvchi omillar, korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari hamda boshqaruvning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish masalalari yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Boshqaruv strategiyasi, korxona faoliyati, raqobatbardoshlik, trend, boshqaruvni takomillashtirish, ichki va tashqi omillar, innovatsiya, integral ko'rsatkich, strategiya, baholash, korxona barqarorligi.

Abstract: This article describes the issues of improving the management strategy of enterprises, the factors affecting it, ways of increasing the competitiveness of enterprises, and improving the organizational and economic mechanisms of management.

Keywords: Management strategy, enterprise activity, competitiveness, trend, management improvement, internal and external factors, innovation, integrated indicator, strategy, assessment, enterprise stability.

Аннотация: В данной статье рассмотрены вопросы совершенствования стратегии управления предприятиями, факторы, влияющие на нее, пути повышения конкурентоспособности предприятий, совершенствования организационно-экономических механизмов управления.

Ключевые слова: Стратегия управления, деятельность предприятия, конкурентоспособность, тенденция, совершенствование управления, внутренние и внешние факторы, инновации, интегральный показатель, стратегия, оценка, устойчивость предприятия

Kirish

Tizimli yondashuv – bu tashkilotlarni boshqarish va rivojlantirishda muayyan tizimlar va ularning o'zaro aloqalarini o'rganishga asoslangan yondashuvdir. Bu yondashuv tashkilotning barcha jihatlarini bir butun sifatida ko'rib chiqadi va ularning o'zaro ta'sirini, taqsimlanishini, va o'zaro bog'liqligini hisobga oladi. Tizimli yondashuvning asosiy maqsadi – muammolarni kompleks ravishda hal qilish va strategiyalarning samaradorligini oshirishdir. Tizimli yondashuv yordamida tashkilotning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish natijasida yanada samarali, moslashuvchan va raqobatbardosh bo'lish

imkoniyatlari yaratiladi. Muammolarni kompleks yondashuv orqali hal qilish va barcha resurslarni muvofiqlashtirish tashkilotning umumiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Korxonalarining strategik boshqaruvini rivojlantirish bo'yicha juda ko'plab xorijiy hamda mahalliy olimlar o'z ilmiy izlanishlarini olib borishgan. Jumladan, xorij olimlaridan R.S.Kaplan, D.P.Norton asarlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirish masalalari keng ko'rib chqilgan. Ushbu olimlarning asosiy qarashlari strategik boshqaruv tizimini korxona va tashkilot uchun asosiy xususiyatlarini, uning samaradorlik ko'rsatkichini baholashga qaratilgan. I.Ansoffning qarashlarida strategik boshqaruv tizimida korxonaning istiqbollarini o'rganish va ularga ta'sir qiluvchi omillarni baholash muhim o'rinn tutadi. Uning e'tiborida korxona doim risk bilan ishlashi, uning uzoq muddatli faoliyati uchun proqnozlar tuzish, ekstropflyatsiya usulini qo'llash zarur. M.Porter qarashlarida kompaniyalarning rivojlanishida innovatsiyalarning o'rni, ularni qo'llash xususiyatlari, kompaniyaning barqaror rivojlantirilishiga faqat innovatsiyalarni doimiy ravishda joriy etish hamda kompaniyalarning raqobat ustunligiga erishishlarida innovatsiyaning ta'sir masalalari tadqiq etilgan. Mahalliy olimlardan, R.S.Muratov, I.A.Djalolova, S.Sh.Oripov qarashlarida esa korxona alohida obyekt sifatida qaralib, uning mazmun va mohiyati, unga qo'yiladigan talablar, ko'rsatkichlar tizimi, moliyaviy barqarorligi va boshqaruvi masalalari atroflicha yoritib berilgan. Korxonalar boshqaruvni va ularga qo'yiladigan talablar, tamoyillar, boshqaruv shakllari baholab berilgan. I.O.Ulashev, Sh.A.Atamuradovlarning ilmiy qarashlarida korxonalar faoliyatini boshqarish mexanizmi muammolari, ularni yechish bo'yicha takliflar, boshqaruv usullari, boshqaruvda optimal variantni tanlash, boshqaruv samaradorligini baholash kabi masalalar yoritib berilgan. G.Sh.Xonkeldiyeva ilmiy izlanishlarida korporatsiyalarni boshqarish, tashkiliy-iqtisodiy ko'rsatkichlarini baholash, rag'batlantirish va samaradorligini oshirish yo'naliishlari yoritilgan. Xalqaro tajribalar dan kelib chiqib, korporativ boshqaruvni zamonaviy usullaridan foydalanish yo'llari, milliy tuzilmalarni shakllantirish, iqtisodiy ko'rsatkichlarni takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilgan. R.R.Abduraupov qarashlarida O'zbekistonda xorijiy investitsiyali korxonalar iqtisodiy salohiyatini boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy yondashuvlarga alohida e'tibor qaratilgan. Amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari va olib borilgan ilmiy-nazariy izlanishlarga qaramasdan, aynan bugungi globallashuv va demokratik bozor islohotlari sharoitida strategik boshqaruv tizimida korxonaning samaradorligini oshirish va iqtisodiy faoliyatini rivojlantirishga ta'sir qiluvchi omillarni baholashga qaratilgan masalalar tizimli holda yoritib berilmaganligi korxonalarda strategik boshqaruv tizimidagi muammolarni tadqiq etish zaruriyatini yaratadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tizimli yondashuv asosida tashkilotning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish uchun tadqiqot metodologiyasi quyidagi bosqichlardan iborat:

Maqsad va vazifalarni aniqlash:

- Tashkilotning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish bo'yicha aniq maqsadlarni

belgilash.

- Olish mumkin bo'lgan natijalarni aniqlash.

Tadqiqot dizayni:

- Kvalitativ va kvantitativ tadqiqot metodlarini birlashtirish.
- Tizimli yondashuvga asoslangan yondoshuvlarni tadqiq etish.

TAHLIL VA NATIJALAR

1. Mavjud boshqaruv strategiyasining tahlili:

- Tashkilotning hozirgi strategiyasi tizimli yondashuvdan foydalanayotganligini aniqlash.

- Boshqaruv jarayonlaridagi kuchli va zaif tomonlarni belgilash.

2. Tizimli yondashuv jarayonlari:

- Tizimli yondashuv asosida tashkilot ichidagi resurslar va imkoniyatlar o'rtasidagi munosabatlarni aniqlash.

- Boshqaruv jarayonida har bir bo'limning o'zaro ta'sirini o'rganish.

3. Natijalar:

- Tashkilotning boshqaruv strategiyasini takomillashtirish uchun qisqa va uzun muddatli takliflар ishlab chiqish.

- Innovatsion yondashuvlar, xususan, texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini taklif etish.

- Boshqaruv jarayonini optimallashtirish, muammolarni aniqlash va ularni hal etish bo'yicha chora-tadbirlar.

4. Tavsiya va natijalar:

- Tashkilotda xodimlar o'rtasida ochiq kommunikatsiyani rivojlantirish.

- Yillik strategik rejalashtirish sessiyalarini o'tkazish va xodimlarni jalb etish.

- Tizimli yondashuvning samaradorligini oshirish maqsadida treninglar va seminarlar tashkil etish.

Korxonalar rivojlanishining SWOT tahlili

Kuchli tomonlari Kuchsiz tomonlari

Korxonalarni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlari ishlab chiqilganligi

Korxonalarda zamонавиx xizmat turlarini rivojlantirish bo'yicha kadrlar yetishmasligi

Korxonalarda berilayotgan moliyaviy imkoniyatlar Mahsulot va xizmatlarni eksport qilishda infratuzilmalar yetishmasligi

Korxonalarda eksport qilish imkoniyatlarining yuqoriligi Mahsulotlarni sotish va saqlashdagi muommolarning mavjudligi

Imkoniyatlari Xavf-xatar yoki tahdidlar

Korxonalarda mahsulot va xizmatlari diversifikatsiyalash imkoniyatlari Ichki va tashqi bozorlarda narx navoning o'zgarishi

Ichki bozordan foydalanish imkoniyatlari Jahon bozorida raqobatning kuchayishi

Xorijiy bozorlarga chiqish imkoniyati Davlatlardagi iqtisodiy siyosiy vaziyat o'zgarishi

XULOSA

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, korxonani boshqarishda samaradorlikka erishish uchun, avvalo, boshqaruvning maqsadlari, shuningdek, vositalari va unga erishish usullarini aniq belgilab olish zarur. Yuqori sifatli va raqbotbardosh mahsulotlarni eng kam xarajatlar asosida ishlab chiqarish eng ko'p daromad olishni ta'minlab, inqirozga uchrashdan saqlaydi hamda har bir korxonaning asosiy vazifasi hisoblanadi. Boshqaruvning barcha vazifalari ushbu maqsad amalga oshishiga xizmat qilishi lozim. Boshqaruvning samaradorligiga ko'p jihatdan korxona oldiga qo'yilgan maqsadlar va bajariluvchi vazifalarning o'zaro munosabatlari yordamida erishiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Abduqodirov, O. (2018). Tashkilotlarni boshqarish: tushunchalar va nazariyalar. Tashkent, O'zbekiston.
2. Jumayev, B. (2021). Tizimli yondashuv: iqtisodiyot va boshqaruv. Tashkent, O'zbekiston.
3. Isakov, A. (2019). Modernizatsiya va innovatsiyalar boshqaruvi. Tashkent, O'zbekiston.
4. Murodov, S. (2020). Ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish va takomillashtirish. Tashkent, O'zbekiston.
5. Rahimov, J. (2017). Tashkilotning strategik boshqaruvi. Tashkent, O'zbekiston.
6. Suyunov, R. (2020). Raqobatbardoshlik va boshqaruv strategiyalari. Tashkent, O'zbekiston.
7. Xolbekov, T. (2019). Tashkilotlarni boshqarish tizimi: nazariy va amaliy muammolar. Tashkent, O'zbekiston.
8. Yusufov, R. (2018). Innovatsion tashabbuslar va ularni boshqarish. Tashkent, O'zbekiston.
9. Karimov, D. (2021). Tashkilotlararo munosabatlari va ularni takomillashtirish. Tashkent, O'zbekiston.
10. Baharov, A. (2022). Tashkilotning ichki va tashqi muhitini baholash. Tashkent, O'zbekiston.